



PROFESSOR TUXTASIN SOLIYEVICH SOLIYEV  
TAVALLUDINING 90-YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN  
«ZAMONAVIY REVMATOLOGIYADA FANLARARO  
MUAMMOLAR» MAVZUSIDAGI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya  
materialari to'plami

Сборник материалов международной научно-  
практической конференции



«МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОВРЕМЕННОЙ РЕВМАТОЛОГИИ» ПОСВЯЩЕННОЙ  
90-ЛЕТИЮ СО ДНЯ РОЖДЕНИЯ  
ПРОФЕССОРА ТУХТАСИН САЛИЕВИЧА САЛИЕВА

Toshkent 2024



# СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ

«МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОВРЕМЕННОЙ РЕВМАТОЛОГИИ»  
ПОСВЯЩЕННОЙ 90-ЛЕТИЮ СО ДНЯ РОЖДЕНИЯ  
**ПРОФЕССОРА ТУХТАСИН САЛИЕВИЧА САЛИЕВА**

***PROFESSOR TUXTASIN SOLIYEVICH SOLIYEV***

TAVALLUDINING 90-YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN

«ZAMONAVIY REVMATOLOGIYADA FANLARARO MUAMMOLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY- AMALIY ANJUMAN

Toshkent tibbiyot akademiyasi// “PROFESSOR TUXTASIN SOLIYEVICH SOLIYEV TAVALLUDINING 90-YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN «ZAMONAVIY REVMATOLOGIYADA FANLARARO MUAMMOLAR” /Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallarinig to'plami/MChJ “TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI” Toshkent - 2024 – 90 bet

## ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

- Азизова Ф.Л. – Тошкент тиббиёт академияси Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор.
- Мирахмедова Х.Т. – 1-сон ички касалликлар пропедевтикаси кафедраси мудири.
- Набиева Д. А. – 1-сон факультет ва госпитал терапия, касб патологияси кафедраси мудири.
- Дадабаева Н.А. – 1-сон ички касалликлар пропедевтикаси кафедраси доценти, т.ф.н.
- Мирзалиева А.А. – 1-сон ички касалликлар пропедевтикаси кафедраси асистенти.
- Бердиева Д. У. – 1-сон факультет ва госпитал терапия, касб патологияси кафедраси доценти.
- Абдуллаев У.С. – 1-сон ички касалликлар пропедевтикаси кафедраси асистенти.

Конференция метериаллари ревматологиянинг долзарб муаммолари, ревматологик касалликларни замонавий ташхислаш усуслари, даволашда замонавий инновацион ёндашувлар, коморбидлик ва мультиморбидлик муаммолари, ревматологик касалликларнинг реабилитацияси ва профилактика масалаларига бағишиланган.

**Кенг учрайдиган ва асосий ревматологик касалликларда илмий тадқиқот ишлари натижалари илмий асослаб берилган.**

**МАЗКУР «ZAMONAVIY REVMATOLOGIYADA FANLARARO MUAMMOLAR»  
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN МАТЕРИАЛЛАР ТҮПЛАМИ  
ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ТИББИЁТИНИНГ УЛКАН НАМОЯНДАЛАРИДАН БИРИ,  
РЕВМАТОЛОГИЯ ЙЎНАЛИШИННИГ АСОСЧИСИ,  
БУ СОҲАДА ИЛМИЙ МАКТАБ ЯРАТГАН АТОҚЛИ ОЛИМ,  
РЕСПУБЛИКАДА ХИЗМАТ КЎРСАТГАН ТИББИЁТ ХОДИМИ,  
Т.Ф.Д., ПРОФЕССОР ТЎХТАСИН СОЛИЕВИЧ СОЛИЕВНИНГ  
ЁРҚИН ХОТИРАЛАРИГА БАҒИШЛАНАДИ**

Професор Тўхтасин Солиевич ревматология соҳасининг тараққиётига беқиёс ҳисса кўшган олим, инсоният учун муҳим бўлган икки касбни – ўқитувчилик ва шифокорликни маҳорат билан уйғулаштирган юксак иқтидор соҳиби эди. Илм орқали халқقا хизмат қилишни, билимдон шогирдлар тайёрлашни умрининг мазмуни деб, ҳаётини шу эътиқодга баҳшида этган фидойи устоз сифатида ҳар иккала касбда ҳам энг олий мақомга эришиб, халқнинг ҳурмати ва ишончига сазовор бўлди.

Тўхтасин Солиев республикада ревматология мактабига асос солди, унинг ташаббуси билан МДҲ мамлакатларида биринчи бўлиб 1991 йил Соғлиқни сақлаш вазирилиги буйруғига биноан ИАДҚ – ихтисослашган амбулатор даволаш курси - Республика артрология маркази ташкил қилинди ҳамда ревматологик беморларга тўлиқ ихтисослашган тиббий ёрдам кўрсатила бошланди. 1993 йилда эса бу марказга Республика ревматология маркази мақоми берилди. Унда ҳар йили 40-50 минг бемор амбулатор даволаниб, меҳнат қобилиятини тиклаб келмоқда.

Бугунги кунда ҳам унинг шогирдлари замонавий шифо усусларидан фойдаланган ҳолда доимий тиббий эътибор ва назоратга муҳтоҷ ревматологик беморларни даволаб келмоқда. Республикаиз вилоятларида ҳам профессор Солиев илмий мактабига мансуб алалиётчи-тадқиқотчи шифокорлар кўп, улар устоз ишларини масъулият билан давом эттиришмоқда.

Устоз ҳам олим, ҳам шифокор, ҳам инсон сифатида ҳақиқий ватанпарварларнинг энг олий тоифасига мансуб эди. Тўхтасин Солиевич деган мўътабар ном нафақат тиббиёт соҳасида, балки умумзиёлилар орасида, халқаро миқёсда катта шуҳрат қозонган эди. Унинг умри яхшилик улашиш, савоб амаллар, хайрли ёдловлар билан яна узоқ йиллар давом этади. Зеро, Тўхтасин Солиев яратган инсонийлик, шифокорлик ва олимлик мактаби, фидойилик фалсафаси билан ёғдуланган ҳаёт йўли истиқлол фарзандлари учун ибрат бўйтонидир.

Кейинги йилларда тиббиётга давлат сиёсати даражасида эътибор кўрсатилмоқда. Домлага ўхшаш дилкаш, ўз соҳасини яхши кўрадиган ва яхши биладиган олижаноб ва довюрак мутахассислар, профессор Солиев яратган илмий мактабининг ватанпарвар во-рислари - улуғ устозларига муносиб фидойи ревматологлар сафи янада кенгайишидан умидвормиз.



## РЕВМАТОЛОГИЯ

### РЕВМАТОИД АРТРИТ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН БЕМОРЛАРДА ПЕРИФЕРИК ҚОНИДАГИ ЛИМФОЦИТЛАРНИНГ СУБПОПУЛЯЦИЯ ТАРКИБИННИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Амриллаев Улубек Шерзодович даволаш факультети

Илмий раҳбар: PhD Ахмедов Ибрат Амриллаевич

Самарқанд давлат тиббиёт университети, 1-сон ички касалликлар кафедраси.

Самарқанд, Ўзбекистон

Ревматоид артрит (РА) бўғимларнинг энг кенг тарқалган яллиғланиш касаллиги бўлиб, тизимли иммун-яллиғланиш заарланишлари билан биргаликда эрозив симметрик полиартрит билан тавсифланади. ЖССТ маълумотларига кўра РА тарқалиши 0,5% дан 1% гача, умумий ревматик касалликларнинг 10% ни ташкил қиласди.

**Тадқиқот мақсади.** РА билан оғриган bemорларда периферик қондаги лимфоцитларнинг субпопуляциясидаги ўзгаришларни аниқлаш ва касаллик клиник кечишидаги хусусиятларини баҳолаш.

**Материаллар ва тадқиқот усуллари.** Тадқиқотимизда Самарқанд давлат тиббиёт университети 1-сонли кўп тармоқли клиникасининг 1-терапия бўлимида РА билан оғриган 125 bemорда, назорат гуруҳидаги 25 кишида лимфоцитларнинг асосий субпопуляциялари таркиби ўрганилди.

Текширилган bemорлар 18 ёшдан 61 ёшгacha бўлиб, уларнинг ўртача ёши  $55,23 \pm 1,05$  йилни ташкил қиласди. Касалликнинг давомийлиги  $7,5 \pm 0,3$  йилни ташкил этди.

#### Тадқиқот натижалари.

РА билан оғриган bemорларда периферик қондаги CD3+, CD4+ ва CD8+ лимфоцитларининг улуши донорлардагидан кўра камайиши, CD56+ улуши соғлом одамларга нисбатан сезиларли даражада ошган ( $14,57 \pm 2,56\%$  ва  $5,81 \pm 3,47\%$ ;  $p < 0,05$ ) аниқланди. CD19+ нинг камроқ сезиларли ўсиши кузатилди (мосравища  $14,28 \pm 0,07\%$  ва  $21,50 \pm 0,74\%$ ;  $p < 0,05$ ). CD25+ эрта фаоллашув маркерини (мосравища  $26,03 \pm 1,48\%$  ва  $10,35 \pm 1,87\%$ ;  $p < 0,05$ ) олиб борувчи лимфоцитлар фоизи донорлар гуруҳига нисбатан РА билан оғриган bemорларда аниқ ўсишини кўрсатади. CD16+ қийматлари - лимфоцитлар, макрофаглар ва гранулоцитлар назорат гуруҳидагилар кўрсаткичларидан сезиларли даражада фарқ қилмади ( $17,73 \pm 2,34\%$  ва  $13,80 \pm 6,82\%$ ;  $p > 0,05$ ).

**Хуроса. Шундай қилиб** РА билан оғриган bemорларда периферик қондаги CD3+, CD4+ ва CD8+ лимфоцитларининг улушкининг камайиши, CD25+ ва CD56+ улуши сезиларли даражада ошиши, ҳамда CD16+, лимфоцитлар, макрофаглар ва гранулоцитлар соғлом одамларнинг кўрсаткичларидан сезиларли даражада фарқ қилмаслиги аниқланди.

### 2 TIP QANDLI DIABET BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA DIABETIK NEFROPATIYANING ERTA BOSQICHIDA KLOTHO OMILINING AHAMIYATI

Miraxmedova Xilola To'xtasinovna, Sadikova Nigora Gayratovna, Botirova Nigina Akram qizi  
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent

Diabetik nefropatiyani erta aniqlash buyrak shikastlanishining oldini olish yoki rivojlanishini sekinlashtirish uchun o'z vaqtida choralar ko'rish uchun juda muhimdir.

#### Tadqiqot usullari

2 tip qandli diabet bilan og'rigan bemorlarda buyrak disfunksiyasining rivojlanish va taraqqiyotida buyrak kanalchalari va interstitiumning shikastlanishi mexanizmlarini o'rganish maqsadi-da qon zardobida klotho omili va sistatin Cni miqdori tekshirilib, o'rganildi. 2 tip qandli diabet bilan kasallangan jami: 120 nafar bemor tekshirildi.

#### Natijalar

Tekshirilayotgan назорат гуруhidagilarning qon zardobida sistatin C ning konsentratsiyasi  $887,05 \pm 180,5$  pg/ml; plazma kreatininining miqdori  $75,19 \pm 8,6$  mkmol/lni tashkil qilgan bo'lsa, 2 tip qand-

li diabet bilan og'igan gfr cr-cys C(ml/min/1.73 m<sup>2</sup>) formulasiga ko'ra C2 guruhidagi bemorlarda qon zardobida sistatin C ning konsentratsiyasi  $1171,18 \pm 119,4$  pg/ml; plazma kreatininining miqdori  $81,3 \pm 13,9$  mkmol/lni tashkil qildi va 2 tip qandli diabet bilan og'igan gfr cr-cys C (ml/min/1.73 m<sup>2</sup>) formulasiga ko'ra C3a guruhidagi bemorlarda qon zardobida sistatin C ning konsentratsiyasi  $1342,18 \pm 169,01$  pg/ml; plazma kreatininining miqdori  $88,27 \pm 15,5$  mkmol/lni tashkil qildi. Bunda e gfr cr-cys C formulasiga ko'ra nazorat guruhida buyraklar koptokchalari filtratsiyasi tezligi  $87,69$  ml/min/1.73m<sup>2</sup> ni tashkil etgan bo'lsa, bemorlarning buyraklar koptokchalari filtratsiyasi tezligi o'rtacha ko'rsatgichlari C2 guruhda  $69,3$  ml/min/1.73m<sup>2</sup> ni tashkil etdi va C3a guruxda  $54,9$  ml/min/1.73m<sup>2</sup> ni tashkil etdi. e gfr cr-cys C formulasiga ko'ra KFT C2 bo'lgan nazorat va C2li bemorlar guruhlaridagi qonidagi kloho miqdorining ko'rsatgichlarini o'rgandik. Bunda nazorat guruxida e gfr cr formulasiga ko'ra KFT - $87,93$  ml/min/1.73m<sup>2</sup> ni tashkil etgan holatda ushbu guruhdagilar qonidagi kloho miqdorining o'rtacha ko'rsatgichlari  $355,34$  pg/ml ni tashkil etdi. E gfr cr-cys C formulasiga ko'ra KFT C2 bo'lgan bemorlarni o'rganganimizda KFT o'rtacha qiymatlari  $69,3$  ml/min/1.73m<sup>2</sup> ni tashkil etdi ushbu bemorlar qonidagi kloho miqdorining o'rtacha ko'rsatgichlari esa  $295$  pg/ml ni tashkil etdi.

### Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra diabetik nefropatiyalı bemorlarda, surunkali buyrak kasalligining erta bosqichlarida kloho miqdorining, nazorat guruhiga nisbatan miqdorining past bo'lishi va koptokcha filtratsiya tezligi pasayishiga mos ravishda Kloho miqdorining ham pasayib borishi ushbu oqsilning diabetik nefropatiya fonida rivojlangan surunkali buyrak kasalligining erta diagnostikasida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

## **QANDLI DIABETNING 2 TIPIDA RIVOJLANGAN SURUNKALI BUYRAK KASALLIGINI ERTA TASHXISLASHDA KLOHO HAMDA SISTATIN C NI AHAMIYATI**

Xilola To'xtasinovna Miraxmedova, Nigora Gayratovna Sadikova, Nigina Akram qizi Botirova  
*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi*

Sistatin C va Kloho 2 tip qandli diabet bilan og'igan bemorlarda diabetik nefropatiya rivojlanishi bilan bog'liq holda o'rganilayotgan ikkita omil. Ikkala omil ham 2 tip qandli diabet bilan og'igan bemorlarda diabetik nefropatiya rivojlanishi erta diagnostikasida qiziqish uyg'otsada, ular alohida rollarni o'ynaydi va turli ta'sirga ega.

### Tadqiqot usullari

Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli poliklinikasi endokrinologiya bo'limida davolayotgan 120 ta 2 tip qandli diabetli bemorlar kuzatuvga olindi. Ulardan 65 tasi ayol, 55ta erkak bo'lib 30 yoshdan 69 yoshgacha, o'rtacha yoshi  $52,5 \pm 0,9$  yosh.

### Natijalar

Nazorat guruhi va bemorlar qonida kreatinin, sistatin C miqdori tekshirilib e gfr cr-cys C formulasigi orqali buyraklar filtratsiya tezligini hisoblangan guruhlarning qonida kloho miqdorini o'rganib o'zaro bog'lanish borligini tahlil qildik va qiyosiy o'rgandik. Bunda e gfr cr-cys C formulasiga ko'ra nazorat va bemorlar guruhlarida kft kamaygani sari kloho miqdorining ham kamayib borishi kuzatildi. Bemorlarda va nazorat guruhida qonda Kloho va sistatin C miqdori tekshirilib e gfr cr-cys C formulasigi orqali buyraklar filtratsiya tezligini hisoblab chiqdik va olingan natijalar asosida KFT C2 darajali nazorat va KFT C2 va C3a guruxlaridan iborat bemorlar guruhlari shakllandi. Bunda e gfr cr-cys C formulasiga ko'ra nazorat guruhida buyraklar koptokchalari filtratsiyasi tezligi o'rtacha qiymatlari  $87,69 \pm 12,94$  ml/min/1.73m<sup>2</sup> ni, e gfr cr formulasiga ko'ra nazorat guruhida buyraklar koptokchalari filtratsiyasi tezligi o'rtacha qiymatlari -  $84,93 \pm 12,76$  ml/min/1.73m<sup>2</sup> tashkil etgan bo'lsa, sistatin C ning o'rtacha qiymati  $887,05 \pm 18,1$  pg/ml, kreatininning o'rtacha miqdorlari  $75,19 \pm 8,6$  mkmol/l ni tashkil etdi. e gfr cr-cys C formulasiga ko'ra kft C2 guruhida kft o'rtacha qiymatlari -  $69,3 \pm 6,7$  ml/min/1.73m<sup>2</sup> ni, shu guruhdagilar kft e gfr cr formulasiga ko'ra o'rtacha qiymatlari -  $79,23 \pm 11,75$  ml/min/1.73m<sup>2</sup> tashkil etgan bo'lsa, sistatin C ning o'rtacha qiymati  $1171,2 \pm 119,4$  pg/ml, kreatininning o'rtacha miqdorlari  $81,38 \pm 13,96$  mkmol/l ni tashkil etdi. e gfr cr-cys C formulasiga ko'ra kft C3a guruhini o'rganganimizda kft o'rtacha qiymatlari -  $54,9 \pm 3,18$  ml/min/1.73m<sup>2</sup> ni, shu guruhdagilar kft e gfr cr formulasiga ko'ra o'rt-